

UDK: 632.937

INTENSIV OLMA BOG'LARDA UCHRAYDIGAN O'RGIMCHAKKANAGA QARSHI KURASHDA ERROU 1,8% PREPARATI SAMARADORLIGINI O'RGANISH.

Matniyozov Bekzod Ulug'bekovich

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Xorazm filiali direktori,

elektron pochta: bekzodmatniyozov225@gmail.com

Annotation. *In this article, Errou 1.8% em.k., mospilan 20% kuk.k. and Urell-D em.k. its effectiveness against spider mites, which are common in intensive fruit orchards in Khorezm region, has been studied.*

Key words: *spider mite, Errou 1.8% em.k, mospilan 20% kuk.k, Urell-D em.k, insectocarcide, biological effectiveness.*

Kirish. Ma'lumki, yildan-yilga bog'dorchilik sohasi qishloq ho'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, sifatli va ekologik toza meva mahsulotlarini yetishtirish har bir davlat ildiga qo'ygan asosiy masalalardan biri xisoblanadi. Shu sababli dunyoda oziq-ovqat havsizligini ta'minlash va jaxon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish maqsadida bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirish va ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5388-son Farmoni, 2021 yil 17 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi prezidentining ayrim hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi PF-6263- sonli farmonida yangi agrotexnologiyalar va zamonaviy texnikalar yordamida qishloq xo'jaligini intensiv usullarga o'tkazish zarurligini ta'kidlab o'tgan edilar.

Hozirgi kunda mamlakat miqyosida har yili qo'shimcha ravishda pakana va yarim pakana intensiv bog'lar tashkil etilib, undagi olma qurti, olma biti, oddiy o'rgimchakkana, qizil o'rgimchakkana, girdak kuya, qalqondor, nok burgasi va boshqa ko'plab zararkunanda hasharotlar tomonidan zararlanishi kuzatilmoqda.

Qishloq xo'jaligida oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashda bog'lardagi zararkunandalarning tur tarkibini aniqlash va ularning himoya qilish tizimini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar Xorazm viloyatining Urganch va Xonqa tumanlaridagi intensiv olma bog'larida olib borildi. Dalada o'rgimchakkanaga qarshi Errou 1,8% em.k, mospilan 20% nuk.k, Urell-D em.k, preparatlarining biologik samaradorligi o'rganildi. Qo'llanilgan preparatlarning biologik samaradorlik Abbot formulasi yordamida hisoblandi [4].

Tajriba natijalari. Tadqiqotlarda 5 yillik mevali bog'larda, balandligi 2,5-3 m gacha bo'lgan "Golden delishes" intensiv olma naviga motorli qo'l purkagichi bilan ishlov berildi. Suvning sarf-me'yori 600 l/ga nisbatan hisoblandi. Bunda o'rgimchakkanaga qarshi ishlov 7-maydan 21-maygacha olib borildi. Tajribalar to'rtta variantdan iborat bo'lib, birinchi variant nazorat varianti qilib belgilanndi. Bitta variant 10x100 m (1000m²) qilib belgilandi va 3 metrdan himoya zonasi etib qoldirildi. mospilan 20% nuk.k preparati andoza variant sifatida olindi.

1-jadval

Intensiv olma bog'laridagi o'rgimchakkanaga qarshi qo'llanilgan kimyoviy preparatlarining samaradorligi.

№	Variantlar	Istemol darajasi kg/ga, l/ga	O'rtacha 1 ta zararlangan bargdagi zararkunandalar soni				Biologik samaradorlik kunlarda %		
			Ishlovdan oldin	Ishlovdan keyingi kunlarda					
				3	7	14	3	7	14
1	Nazorat varianti	-	10	10.5	11.8	12			
2	Mospilan 20% kuk.k (andoza)	0.3	9.2	2,02	1.29	1.75	78	86	81
3	Urell-D 55%	1.0	8.9	1.42	1.07	1.34	84	88	85
4	Errou 1,8%	1.0	9.6	1.44	0.48	1.25	85	95	87

Intensiv olma bog'laridagi olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 1 - variant nazorat varyanti bo'lib, ushbu varyantda preparatlar qo'llanilmadi va ishlovdan oldin 10 ta so'ruvchi zararkunandalar bo'lib, 1, 2 va 3 variantlarga ishlov berilgandan 3 kundan keyin 10,5 taga, 7-kundan keyin 11.8 taga va 14-kundan keyin esa 12 taga oshgan. 2- variantda ishlovdan oldin 9,2 dona so'ruvchi zararkunandalar bo'lib, mospilan 20% li em.k. (atsetamiprid) preparatini 1 l/ga qo'llaganda 3 kundan keyin 2,02 dona yoki 78 % ga, 7 kundan keyin 1,29 dona yoki 86

% ga, 14 kundan keyin 1,75 dona yoki 81 % ga kamaygan. 3-variantda ishlovdan oldin 8,9 dona so'ruvchi zararkunandalar bo'lib, Urell-D em.k. preparatini 1 l/ga qo'llaganda 3 kundan keyin 1,42 dona yoki 84 % ga, 7-kundan keyin 1,07 dona yoki 88 % ga, 14 kundan keyin 1,34 dona yoki 85 % ga kamaygan. 4- variantda ishlovdan oldin 9,6 dona so'ruvchi zararkunandalar bo'lib, Errou 1,8% em.k. preparatini 1 l/ga qo'llaganda 3 kundan keyin 1,44 dona yoki 85 % ga, 7 kundan keyin 0,48 dona yoki 95 % ga, 14 kundan keyin 1,25 dona yoki 87 % ga biologik samaradorlik kamaygan. Natijada intensiv olma bog'lardagi so'ruvchi zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurashda biologik samaradorlik yuqori ta'sir qilib, 7-kundan keyin mospilan 20% li em.k. (atsetamiprid) andoza varyantda 86% , Urell-D em.k.-88%, Errou1 1,8% em.k. preparati qo'llanilganda esa biologik samaradorlik 95% ni tashkil qildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xorazm viloyati sharoitida intensiv bog'lardagi o'rgimchakkanalarga qarshi kimyoviy kurash olib borishda Errou 1,8% em.k. preparatining biologik samaradorligi 7-kuni 95% ni tashkil qilib yuqori darajada ta'sir qilishi o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги зараркунандалари. – Тошкент: “Ўрта ва олий мактаб”, 1962. – Б. 368-382.

2.Хўжаев Ш.Т. ва б. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (II-нчи нашр). – Тошкент, 2004. – 104 б.

3. Abbot W.S. A method of computing the effectiveness of an insecticide//J.Econ. Entomol. – 1925. V.18. – №3. – P.200-265.

4. Sulaymonov B., Xamdamov K., Raxmonova M. Mevali daraxtlarni zararkunandalardan ximoya qilishni biologik usuli. // O'zbekiston agrar fani habarnomasi. – Tashkent, 2017. – № .4 (70). – B. 102-103.

5. Sulaymonov B., Xamdamov K., Raxmonova M. Mevali bog'larda uchraydigan entomofaglarining sistematik tahlili// O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. – Toshkent, 2018. – № 10. – B. 40-41.

6. Sulaymonov B., Xamdamov K., Raxmonova M. Olma mevaxo'ri (*soropocapsa pomonela* L) sonini boshqarishda tirixogramma chilonisni ko'llashning biologik samaradorligi. // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali – Toshkent, 2018. – № 3(7). – B. 32-33.

7. Обиджанов Д. Опасный вредитель в садах Узбекистана //Ж. Защита и карантин растений. – Москва, 2009. – №3. – С.52.

8. Dilshod Obidzhanov & Mansur Muminov. Combat against roll moth in apple orchards. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, Published Date: September 30, 2022 | Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume04Issue09-02>

9. Mukhsimov N.P., Akhmedova Z.R., Khamraeva Z.T., Nafasov Z.N., Obidjanov D.A. Dangerous pests of hawthorns, widespread in uzbekistan and development of biological methods of their protection. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 3 Issue 29 July 2024. P. 117-125. Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. <https://zenodo.org/records/13125183>

10. Obidjanov D.A., Matniyazov B.U. Insecticide medouz, md in the fight against apple codling moth and aphids on apple trees. The usa journals the american journal of agriculture and biomedical engineering (ISSN – 2689-1018) volume 06 Issue09 11 <https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajabe> published date:-10-09-2024 DOI:-<https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume06Issue09-03>

11. Д.А.Обиджанов, Б.У.Матниёзов. Insecticide Twingo euro, md s.k. in the fight against leaf rollers and scale insects on the apple tree. //Web of Agriculture: Journal Agriculture and Biological Sciences. Volume 2, Issue 8, August - 2024 ISSN (E): 2938-3781. P. 19-22.